

## SOYANING BIRLAMCHI URUG‘CHILIGINI O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA TASHKIL ETISH

**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich**

*dosent, q.x.f.f.d (PhD)*

*FarDU Agrar qo‘shma fakulteti*

*Email: idrisovh256@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soyaning boshlang‘ich urug‘chilik tizimini yo‘lga qo‘yish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari yoritilgan bo‘lib, o‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soyaning “Nafis” navidan 1292 kg, Parvoz navidan 7650 kg superelita urug‘lari yetishtirilgan bo‘lib, o‘rtacha hosildorlik 31,7 s/ga ni tashkil etdi.

**Kalit so‘zlar:** Soya, oqsil, moy, vitamin, seleksiya, urug‘chilik, oila, ko‘chatzor.

Mamlakatimizda seleksiya, urug‘chilik ishlari umum davlat ishi bo‘lib, markazlashgan yagona davlat tizimi asosida olib boriladi. Uning tarkibiga yangi nav yaratish bilan shug‘ullanuvchi seleksiya, yangi navlarni sinash va rayonlashtirish ishlari bilan shug‘ullanuvchi Davlat nav sinash komissiyasi, navlarning biologik va mahsuldorlik sifatlarini saqlab qolgan holda ularning urug‘ini ommaviy ko‘paytirish bilan shug‘ullanuvchi urug‘chilik, urug‘ tayyorlash, nav va urug‘ nazorati kiradi.

Urug‘chilik reproduksiya natijasida nav va hosildorlik sifatlarini saqlab qolishni, zarur miqdorda sifatli urug‘ yetishtirishni, ularni saralash, saqlash va sifatini ta‘minlaydigan davlat tadbirlarinining qat‘iy usulidir. Urug‘chilikni to‘g‘ri tashkil etish mo‘l hosil yetishtirish va yalpi hosilni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Soya urug‘chiligi vazifasiga faqat urug‘ni ko‘paytirish emas, balki reproduksiyalash protsessida ularning sifat va hosildorlik xususiyatlarini yaxshilash va saqlash ham kiradi.

Soya ekini O‘zbekistonda keng ommalashib bugungi kunda respublikamizning barcha viloyatlarida imkoniyat darajasida ekilib yetishtirilmoqda. Soya donida 55 foizgacha oqsil, 27 foizgacha moy bo‘lib barcha ekinlardan ustun turadi va dunyo miqyosida ishlab chiqariladigan o‘simlik moyining 50% foizidan ortig‘i soya donidan olinadi. Soya donida oqsil miqdori tovuq go‘shiga qaraganda 14 marotaba, mol go‘shiga qaraganda 4 marotabaga ko‘pdir. Soya maxsulotlaridan oziq-ovqat sanoatida yog‘, un, pishloq, sut, makaron, qandolat hamda har xil

vitaminlarga boy bo'lganligi uchun dorilar tayyorlanadi va jun, mato, o'g'it, sovun, har xil bo'yoqlar, lak va moylovchi yog'lar olinadi.

Soya o'simligining ko'k poyasi chorvachilikda silos, yem-xashak hisobida ishlatiladi. Soya kunjarasida 38-39% oqsil, 35% moy, 40-45% protein va 0,52 oziqa birligi bor. Soya o'simligi ildizidagi tuganakchalar tufayli har gektaridan 90-100 kilogramgacha sof biologik azot to'playdi va tuproq unumdorligini oshiradi. Soya donida oqsilni ko'pligi jihatidan bug'doy donidan 2,5, makkajo'xori donidan esa 3,5 barobar yuqori turadi va soya donining oqsili tarkibida 10 dan ortiq aminokislotalar mavjud. Ko'k massasi esa chorva mollariga to'yimli ozuqa bo'ladi. Soya ildizlarida barcha dukkakli o'simliklarning ildizlaridagi kabi havodagi azotdan foydalana oladigan tuganaklar rivojlanadi. Soya yorug'lik, issiqlik va namlikni sevadigan o'simlik juda qadimiy ekin hisoblanadi.

Urug'chilikni to'g'ri yo'lga qo'yishda nav va duragaylarning biologiyasini bilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Yaxshi navning sara urug'ini ekish hisobiga ortiqcha harajat sarf qilmasdan hosildorlikni oshirishga erishish mumkin.

Yuqori sifatli don yetishtirish uchun don-dukkakli ekinlarga, shu jumladan soya ekiniga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi O'zbekistonda dukkakli don ekinlaridan mosh, soya, loviya, no'xot yetishtiriladi. Bu ekinlar yerni ekologik va meliorativ holatini yaxshilashda, tuproq unumdorligini oshirishda, aholini oqsil va kerakli oziqa moddalariga talabini qondirishda muhim ahamiyatga ega.

Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqli sharoitida (tuproq nomi yetarli miqdorda bo'lganda) soya birinchi yil o'stirilganda ham ildizlarda tuganak bakteriyalar hosil bo'ladi, shuningdek iyun-iyulda ekilgan moshda tuganak bakteriyalar 50-60 donani tashkil qiladi.

**Tajribaning o'tkazish joyi va sharoiti.** Tajribalar SHITIning tajriba xo'jaligi 13/1 karta (2,07) chekida olib borildi. Tajriba xo'jaligi Toshkent viloyatining janubiy sharqiy qismida, Toshkent shahridan 15 km uzoqlikda Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida geografik o'rni bo'yicha Grinvich shkalasida 69<sup>0</sup>18 Sharqiy uzunlikda va 41<sup>0</sup>20' Shimoliy kenglikdagi tekisliklarda joylashgan. Tuproq-o'tloqi. Tajriba dalasining tuprog'i sho'rlanmagan, xaydov qatlami 30-40 sm. Tuproqdagi eritmalarning pH miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo'lib, mexanik tarkibi bo'yicha og'ir loylidir.

Urug'chilik qishloq xo'jalik o'simliklari urug'larini yetishtirish va ularning sifatini yaxshilash bilan shug'ullanadigan tarmog'i hisoblanadi.

Urug'chilikning vazifalari, urug'chilikni nav tozaligini saqlash, uning hosil sifatini yaxshilash, navsiz urug'larni yuqori sifatli urug'lar bilan almashtirish. Navli urug'lardan foydalanish qishloq xo'jalik ekinlarini hosilini oshiradi, sifatini

yaxshilaydi hamda bu ekinlarni barcha tumanlarda ekilishiga, keng tarqalishiga yo‘l ochib beradi.

Hozirgi vaqtda soyaning yangi ekologik toza navlarni yaratish, rayonlashtirilgan navlarni va urug‘larini ko‘paytirish va undan samarali foydalanish hal qiluvchi omillardan eng muximi ilmiy asosida tashkil qilingan urug‘chilik tizimidir. Elita urug‘larni har bir mintaqa o‘zlarining tuproq iqlim sharoitiga qarab tanlash joylashtirish, urug‘likni ko‘paytirish doimiy ekiladigan navlarin yangilab turish, urug‘larni ekishga yaroqlik sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, hosildorlikni ko‘paytirish, dolzarb masalalardan biri. Urug‘larni sifat ko‘rsatkichlarini oshirishgacha bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borish lozim. Oziq moddalar, donning shakllanishiga, soya va mosh o‘simligi o‘stirilayotgan mintaqa sharoitiga parvarish qilish usuliga, ularning agrotexnikasini yuksak saviyada olib borish kabi muxim tadbirlarni to‘g‘ri o‘tkazish urug‘chilikni rivojlanishiga olib keladi.

O‘simliklarni o‘shida va hosilning shakllanishida oziq moddalar muhim rol o‘ynaydi. Soya o‘simligi ildizlari tunganakka boy va tuproqda 60-80 kg sof azot to‘plashi, tuproq unumdorligini oshirishiga olib keladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan urug‘chilik mo‘l xosil yetishtirish va yalpi xosilni oshirishning muxim omili hisoblanadi.

Soyaning “O‘zbek-2”, “Do‘stlik”, “Parvoz”, “Nafis”, “O‘zbek-6”, “Orzu” navlaridan 250 tadan jami 1500 ta oila 0,36 ga maydonga, ushbu navlardan 300 tadan jami 1800 ta oila 1,08 ga maydonga birlamchi urug‘chilik tizimi tashkil etish uchun ekildi. Hisobot yillarida ekilgan oilaviy ko‘chatzorlaridan o‘rtacha 23,4 sentnerdan 35,7 sentnergacha hosildorlik olindi 1-jadval.

1-jadval

**Boshlang‘ich urug‘chilik ko‘chatzorida ekilgan oilalar hosildorligi, (2018-2019yy)**

№	Ekin turi va navi	Hosildorlik, s/ga		
		2018 y	2019 y	O‘rtacha
1.	O‘zbek-2	33,2	31,0	32,1
2.	O‘zbek-6	36,5	35,0	35,7
3.	Do‘stlik	32,4	30,0	31,2
4.	Nafis	31,7	34,3	33,0
5.	Parvoz	31,1	33,1	32,1
6.	Orzu	22,0	24,8	23,4

Barcha navlardan model bog‘lamlar olinib bimetrik taxlil qilindi. 1000 dona don vazni O‘zbek-2 navida 2013 yilda 168,0 g bo‘lgan bo‘lsa, 2014 yilda 156,2 g bo‘ldi. O‘zbek-6 navida bu ko‘rsatkich mos ravishda 170,4; 168,4, Do‘stlik navida



165,0; 155, Orzu navida 156,1; 152,1, Parvoz navida 188,0; 166,3, Nafis navida 189,0; 167,5 g bo'lganligi aniqlandi.

**Xulosalar.** Soyaning "O'zbek-2", "Do'stlik", "Parvoz", "Nafis", "O'zbek-6", "Orzu" navlaridan 550 tadan jami 3300 ta oila 1,44 ga maydonga o'rtacha 23,4 sentnerdan 35,7 sentnergacha hosildorlik olindi Soyaning Nafis navidan 1292 kg, Parvoz navidan 7650 kg superelita urug'lari yetishtirildi. O'rtacha hosildorlik 31,7 s/ga ni tashkil etdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Saltas M.M., Burigina O.V., Yunusov B.K. Rekomendatsii po vozdelivaniyu soi. Tashkent, 1982, 15 s.
2. Saimnazarov Y.B. va boshqalar. O'zbekistonda dukkakli-don ekinlari yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent. 2009y.
3. Oripov R.O., Xalilov N X "O'simlikshunoslik". T "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" 2007
4. Dospexov B.A., "Metodika polevogo opita", Izd-vo «Kolos» Moskva 1985g
5. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent. 2007 y.
6. Idrisov, X. A., Atabayeva, X. N. (2022, may). Loviya va mosh ekinlarining umumiy ahamiyati va biologik xususiyatlarini tahliliy o'rganish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 8, pp. 644-651).
7. Xalima, A., Xusanjon, I., & Abdulvosid, S. (2022). O'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolis aureis piper*) ning o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligi. *Research and education*, 1(2), 373-381.
8. Xusanjon, I., & Abduxolik, K. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko'chatzorida o'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.
9. Abdujabborovich, I. X., Ozodbek, A., Nodirbek, X., & Abrorbek, a. (2022). Sug'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me'yoring ta'sirini o'rganish. *Science and innovation*, 1(1), 615-624.
10. Abdujabborovich, I. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.